

## NEMIS TILI LUG'ATI TARKIBIDAGI O'ZLASHMA SO'ZLARNING TASNIFI

*Abdubannayeva Shodiyaxon  
O'zMU Lingvistika (nemis tili) mutaxassisligi  
1-kurs magistri  
Ilmiy rahbar: F.f.f.dot. Y.N. Ismoilov.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'ladigan omillar haqida so'z boradi. Maqolada o'zlashmalarning kirib kelish sabablari, jumladan lingvistik yoki ekstraliningvistik sabablari, qaysi tillardan qaysi sohalarga so'zlar o'zlashganligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zlashmalar, lug'at tarkibi, chet tili, lingvistik omillar, ekstraliningvistik omillar, lotin tili, ingliz tili.

**Zusammenfassung:** In diesem Artikel geht es um die Faktoren, die dazu führen, dass aus anderen Sprachen entlehnte Wörter in die deutsche Sprache eingeführt werden. Der Artikel erörtert die Gründe für die Einführung der Assimilation, einschließlich sprachlicher oder außersprachlicher Gründe, aus welchen Sprachen welchen Bereichen Wörter zugeordnet wurden.

**Schlüsselwörter:** Erwerb, Wortschatz, Fremdsprache, sprachliche Faktoren, außersprachliche Faktoren, lateinische Sprache, englische Sprache.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются факторы, которые приводят к появлению заимствованных слов в немецком языке. В статье рассматриваются причины появления заимствований, в том числе лингвистические или экстралингвистические причины, из каких языков и в какие области были заимствованы слова.

**Ключевые слова:** Приобретение, словарный запас, иностранный язык, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, латинский язык, английский язык.

### KIRISH

Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan muloqotda ushbu texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki bu texnologiyalarning nomlanishi ham turlicha. Bu paytda esa biz albatta o'zlashma so`zlarni qo'llashga majbur bo`lamiz. Ma'lumki, har bir tilning lug'at tarkibi boyib borishining bir qancha yo'llari mavjud. Ana shunday yo'llarning biri bu boshqa tillardan so'zlar o'zlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan o'tkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Ma'lum bir tilning hozirgi davr rivojida avvalo boshqa

davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli bo`lgan so`zlar o`zlashishi kuzatilmogda. Har bir tilning o`z rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan so`zlarning kirib kelishi kuzatilgan.

Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi so`zlarning kirib kelishi o'sha tillarning lug'ati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Nemis tilshunosligida tilning lug'at tarkibining boyib borishining bir necha yo'llari mavjud.

1. Yangi so`zlar yasalishi orqali (So'z yasalishi)
2. Boshqa tillardan so`z kirib kelishi orqali (o`zlashmalar)
3. Mavjud so`zlarning ma'nosi o'zgarishi orqali (ma'no ko'chishi)
4. Frazeologik birikmalarning yasalishi orqali (frazeologizmlar)

Shunga ko'ra nemis tilida o`zlashma so`zlar ikki guruhga bo'linadi. Bular nemis tiliga to'liq o`zlashib ketgan so`zlar (Lehnwörter) va chet til (Fremdwörter) so`zlaridir. To'liq o`zlashib ketgan so`zlar asosan qadimgi,o'rta hamda yangi nemis adabiy tili davrlarida kirib kelgan hamda to'liq nemischalashib ketgan so`zlardir.Bularni hozirda hech kim chet tilidan kirib kelgan so`zlar sifatida tushunmaydi.Masalan:Fenster, Mauer,Mönch,tanzen,schreiben va boshqalar.

Chet so`zlar (Fremdwörter) nemis tilida keng qo'llaniladigan so`zlar bo'lib,ularning o`zlashgan so`zlar ekanligi ko'rinish tursada, xorijiy so`z sifatida ko'rilmaydi hamda nemischa ekvivalenti bilan almashtirib qo'llanilmaydi. Masalan: Politik, Sport, interessant, Interview, demonstrieren va boshqalar.Nemis tiliga asosan quyidagi yo'llar bilan so`zlar o`zlashtiriladi:

1.Chet tilidagi so`zni ham shakli,ham ma'nosi bilan birga to'liq o`zlashtirish, ya'ni oddiy usul (einfache Entlehnung).Masalan: okey, hi, Sputnik, Sozialismus.

2.So`zlarni kalkalash orqali tarjima qilib o`zlashtirish (Lehnübersetzung). Masalan: ingl. Football-Fussball, useless-nutzlos.

3.O`zlashtirilgan international so`zlar (Internationalismen). Bular turli tillarda bir xil shakl va ma'noda ishlatiladigan so`zlar bo'lib,ular asosan turli soha terminlaridan iboratdir. Masalan:

Nem.der Student

Ingl.Student

Fransz.Le'tudiant

Rus.Студент

O'zb.Student

International so`zlar qatoriga xalqlarning o'ziga xos madaniyati xususiyatlarini ifodalaydigan hamda ko'p tillarga o`zlashtirilgan so`zlar ham kiradi.Masalan:Kurash,Halol,Schaschlyuk,Kuli va boshqa.

## **ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Ushbu maqolani yoritishda quyidagi adabiyotlardan foydalanildi. Jumladan Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001, Tesch G. Linguale Interferenz. Theoretische, terminologische und methodische Grundfragen zu ihrer Erforschung, M.E.Umarxo'jayev „Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi“ o'quv qo'llanma Andijon-2010. Der Einfluss des Englischen auf europäische zur Jahrtausendwende. Frankfurt am Main, Langenscheidt, 2004 kabilardan foydalanildi.

### **METOD VA NAZARIY ASOSLAR**

O'zlashmalar atamasi lingvistik hodisalarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishning barcha turlari uchun umumiyligi atama bo'lib, asosan kengroq ma'noda ishlataladi, ya'ni u nafaqat natijani, balki ushbu o'zlashish jarayonini ham qamrab oladi. Tilshunoslik tarixi nuqtai nazaridan nemislarning "qadimgi mahalliy aholisi", ya'ni german va hind-yevropa tillaridan "meros qilib olgan" ichki so'zlar (mahalliy so'zlar) salmog'i anchayin ko'pchilikni tashkil qiladi. Hind-Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar qatlami butun hind-Yevropa til oilasiga (uchun umumiyligi bo'lib, masalan, dt. neu, ngriech. néos, russ. novy, lat. novus, lit. Naujas), nemis qadimgi meros so'zlar, boshqa tomonidan, faqat german sohasida aniqlash mumkin hind-yevropa tillari (masalan, dt. Winter, engl. winter, schwed. vinter, got. vintrus). Ushbu mahalliy so'zlarning ko'pchiligi vaqt o'tishi bilan so'z yasalishi orqali, kompozitsiyalar va boshqalar jarayonlar orqali hajmi ko'payib borgan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, har bir tilning lug'at boyligini ko'paytirishda o'zlashma so'zlarning ahamiyati katta. Jahan tillarida bo'lgani kabi nemis tiliga ham dunyoning qator tillarida so'zlar o'zlashgan. Nemis tiliga dastlab kelt tilidan so'zlar o'zlashganini ko'rishimiz mumkin. So'ngra butun Yevropa bo'ylab lotin tili hukmronligi o'rnatila boshladi. Lotin tili Yevropa tillari uchun "Bobo til" dir.

Nemis tilida o'zlashmalarning tarixda ko'p o'zlashgan va bugungi kunda so'zlar o'zlashishi davom etayotgan til shubhasiz bu ingliz tilidir. Amerika ikkinchi jahon urushidan keyin yetakchi davlatga aylannganligi, bugungi globallashuv jarayonlari, fan texnikaning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalar ingliz tilidan so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari nemis tilida italyan tili, kelt tili, slavyan tillari, rus, arab, ispan va boshqa tillardan so'zlar o'zlashganini ko'rishimiz mumkin. Bu tillardan so'zlarning kirib kelishiga bir qancha ekstralengvistik va sotsiolengvistik sabablarni keltirib o'tish mumkin. Jumladan, harbiy soha (bosqinchilik urushlari, yerlearning istilo qilinishi), madaniyat sohasida, ilm-fan, texnologiya rivojlanishi oqibatida kirib kelmoqda. Bugungi kundagi globallashuv jarayonlari ham ko'pgina tillarga yangi so'zlarning kirib kelishiga zamin yaratmoqda. (internet, IT, zamonaviy texnologiyalar shular jumlasidandir)

**REFERENCES**

1. Munske H. Fremdwörter in deutscher Sprachgeschichte. Integration oder Stigmatisierung. Hrsg. Gerhard, 2001.
2. Muhr R. Eurospeak: Der Einfluss des Englischen auf europäische zur Jahrtausendwende. Frankfurt am Main, Langenscheidt, 2004.
3. Ogli, Kuvonov Zarifjon Maxsiddin. "Die vorteile und nachteile der onlinebildung." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 2 (2021): 478-481.
4. Зариф, Кувонов (2020). Немис тилига франсуз тилидан ўзлашган сўзларнинг структурал-семантик тадқиқи, XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация
5. Кувонов, Зарифжон (2020). Немис тилига ўзлашган сўзларнинг келиб чиқиши тарихи. Проблемы и перспективы развития современной науки в странах Европы и Азии – XXIV Международной научно-практической интернетконференции.